



TRANSPORT EKSPEDITSIYASI SHARTNOMASIDA EKSPEDITORNING FAOLIYATI

Dilmurodova Malika Bekmurod qizi

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Iqtisodiyot fakulteti, Yu-5 guruh 3-kurs
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola transport ekspeditsiyasi shartnomasi, shartnomaning tomonlari, vazifa va majburiyatlari, ekspeditorlik faoliyati, shartnoma shakli, shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yuzasidan javobgarlik doirasi belgilangan.*

Kalit soʻzlar: *ekspeditor, ekspedittorlik faoliyati, yuklarni tashish, tashishni amalga oshirish, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Transport-ekspeditorlik korxonalarini toʻgʻrisidagi Nizom.*

Yuklarni tashishga oid xizmatlarni bajarish yoki bajarishni tashkil qilish bilan bogʻliq faoliyat transport ekspeditsiyasi shartnomasining predmeti hisoblanadi. Kelishilgan shartnomaga asosan, ekspeditor mijoz yuk tashish bilan bogʻliq xizmatlarni bajarish majburiyatini oladi.

Ekspeditor - transport ekspeditsiyasi shartnomasi tomoni - tovarlarni tashishni tashkil etish bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxs, bunda u temiryoʻl, suv, avtomobil transportida yuklarni tashish, shuningdek, yuklarni, tavakkalchiliklarni, transport vositalarini sugʻurtalash, yuklar va hujjatlarni rasmiylashtirish, joylashtirish, saqlash, ishlov berish, deklaratsiyalash va bojxona tartibotlari, transport ekspeditorlik xizmatini koʻrsatish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa xizmatlar koʻrsatish boʻyicha keng va turli ishlar kompleksini bajaradi, shuningdek, ushbu tashishlarni amalga oshirish ustidan nazoratni taʼminlaydi va mijozning transport korxonalarini oldidagi manfaatlarini himoya qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan, ekspeditorlik shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnomalardan biri hisoblanadi. Shartnomaga asosan, xizmatlar asosiy, yaʼni yuklarni tashishni tashkil etish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan va qoʻshimcha xizmatlarga boʻlish mumkin. Shuningdek, ekspeditor transport ekspeditsiyasi shartnomasi boʻyicha eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni olish, bojxona, yigʻimlar va boshqa harajatlarni toʻlash, yukni saqlash kabi qoʻshimcha xizmatlarni koʻrsatish mumkin. Shuningdek, yukni yetkazib berish bilan bogʻliq boshqa xizmatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Transport-ekspeditorlik korxonalarini toʻgʻrisidagi Nizomga koʻra, Transport-ekspeditorlik faoliyati - transport-ekspeditorlik korxonasi tomonidan amalga oshiriladigan transport-ekspeditorlik xizmatlarini bajarishga doir faoliyat. Transport-ekspeditsiya xizmati koʻrsatishda bajariladigan operatsiyalar bir qator qoʻshimcha ishlarni amalga oshirish uchun zarur. Jumladan, yukni tashish uchun tayyorlash - idishlarga joylash, markirovkalash, yoʻnalish boʻyicha kichik guruhlariga ajratish; yukni qabul qilish va uni harakatdagi tarkibga ortish; yukni kuzatib borish va tashish jarayonida yuk sifati va miqdori



saqlanishini ta'minlash; yukni belgilangan punktda transport vositasidan tushirish va yukni qabul qiluvchiga og'irlik yoki hajm birligi bo'yicha topshirish (to'g'ridan to'g'ri tashishda) yoki yukni boshqa turdagi transport vositasiga topshirish (aralash tashishda); tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish. Bu ishlarni transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatuvchi korxonadan amalga oshirilishi yuk egalari uchun ularning ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan transport jarayonini tashkil etish ishidan ozod qiladi.

Tashishni amalga oshirish yuk jo'natuvchidan yukni qabul qilish va yukni qabul qiluvchilarga topshirish bo'yicha bajariladigan operatsiyalar bilan bog'liq. Tashish uchun buyurtma yukni tashish uchun qabul qilish va topshirish hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi. Shartnomaga qo'shimcha ravishda (transport vositasi va mijoz uchun zarur bo'lgan) yuk tashishning oylik rejasi tuziladi. Yuk tashish shartnoma asosida yoki bir martalik (rejadan tashqari) buyurtma asosida amalga oshirilishidan qat'i nazar mijoz belgilagan tartibda (1-2 kun oldin) buyurtma beradi. Buyurtma tezkor rejalashtirishda hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Yuk tashish markazlashtirilgan usulda tashkil etilganda shartnomaga binoan yukni avtomobil haydovchisi qabul qilib oladi, markazlashtirilgan usulda yuk tashishda esa - mijoz vakili (ekspeditor) qabul qiladi. Tashish uchun mo'ljallangan yuklarni yuk egalari tashishga topshirish uchun oldindan tayyorlab qo'yadi. Idishlarga joylab tashiladigan yuklar yuk turiga mos keluvchi soz holdagi taralarga joylanishi lozim. Tarozida tartib olinishi lozim bo'lgan yuklar og'irligi bo'yicha qabul qilinadi. Yuk o'rami soni yoki o'lchami bo'yicha tashishga taqdim etiladigan yuklar sanash asosida yoki transport vositasini to'la yuklanishni aniqlash uchun o'lchab qabul qilinadi. Yuk qiymatini e'lon qilish. Yukning buzilishi yoki isrof qilinishida transport korxonasi tomonidan javobgarligini aniqlab qo'yish uchun yukning qiymati e'lon qilinadi, bu qiymat davlat narxi yoki tovar-transport hujjatida ko'rsatilgan mahsulot qiymatidan ortiq bo'lmasligi lozim. Qimmatbaho bo'lmagan yuklar (qum, shag'al, qum tuproq, maydalangan tosh va shu kabilar)ni qiymati e'lon qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 727-moddasiga asosan, ekspeditorlik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Agar yozma shaklda tuzilishiga rioya qilmaslik shartnoma shartlarini bekor bo'lishiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitim tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guchohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan maxrum qiladi.

Agar transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun ekspeditorga ishonchnoma kerak bo'lsa, mijoz ishonchnoma berilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Toshkent – 2023
2. Transport-ekspeditorlik korxonalarini to'g'risidagi Nizom 348-son 09.09.2000
3. "Fuqarolik huquqi". Darslik. - Toshkent: Adolat, 2021.- 521-bet
4. Брагинский М.И. Витрянский В.В. Договорный право.- Москва.: 2002.- стр 801- 813